

Uzbekistan Airways Dushanbe International Tourism Exhibition ko'rgazmasida

2024 27 Sentabr

Dushanbe shahri aholisi, sizlarni "Dushanbe International Tourism Exhibition"da Uzbekistan Airways stendiga taklif qilamiz!

Dushanbe Expo ko'rgazmasida 25-27-sentabr kunlari bo'lib o'tayotgan DITE-2024 ko'rgazmasi sayyohlik kompaniyalari, aviakompaniyalar, davolash-sog'lomlashtirish muassasalari, mehmonxona va restoran biznesi vakillarini birlashtiradi.



Ko'rgazma doirasida aviakompaniya vakillari xorijiy hamkorlar va ko'rgazma mehmonlariga Dushanbedan parvozlarni miqdorini oshirish istiqbollari va Dushanbe aeroportidan Yevropa, AQSh, Rossiya Federatsiyasi va MDH shaharlariga qulay tranzit tutashuv aviaqatnovlari haqida batafsil ma'lumot taqdim etmoqda.









